

O'zbekiston Suv Ta'minoti – Energiya Samaradorligi (II Bosqich)

Mamlakat:	O'ZBEKISTON
Loyiha raqami:	54727
Biznes Sektor:	Infra Eurasia
Bildirgi turi:	Davlat
Ekologik kategoriya:	B
Taxminiy Ma'qullanish Sanasi:	29 May 2025
Xozirgi holat:	Tasdiq kutilmoqda
Loyihasining Ingliz tilidagi Xulosa Hujjati (PSD) ochilish sanasi:	19 Fevral 2025

Loyihaning tavsifi

O'zbekiston Respublikasiga 250 million AQSh dollarigacha bo'lgan suveren kredit ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi (MWR) manfaatlarini yo'lida yo'naltiriladi. Ushbu mablag' O'zbekistonning 10 ta hududida sug'orish suvi tashish (IWC) uchun nasos stansiyalarini (PSs) modernizatsiya qilish loyihasini moliyalashtirishga mo'ljallangan. (keyingi o'rinlarda "Loyiha" deb yuritiladi); Loyihaning ushbu bosqichi mamlakatning Farg'ona vodiysidagi uchta hududida 118 ta nasos stansiyasini modernizatsiya qilishni o'z ichiga olgan Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YeTTB) tomonidan amalga oshirilayotgan tranzaksiyaning birinchi bosqichining davomidir.

Loyihaning maqsadlari

Loyiha milliy sug'orish suvi tashish (IWC) tizimida energiya va suv samaradorligini oshirish orqali iqlim o'zgarishiga chidamliligini mustahkamlashga xizmat qilishi kutilmoqda.

O'tish jarayonining ta'siri

ETI 72

Asosiy sifat: Yashil. Loyiha energiya samaradorligini sezilarli darajada oshirish va issiqxona gazlari (GHG) chiqindilarini kamaytirish orqali iqlim o'zgarishining oldini olishga xizmat qiladi. Ikkinchi darajali sifat: Inklyuziv. Loyiha sug'orish uchun ishonchli

suv ta'minotini kengaytirib, fermerlar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni oshiradi. Loyi haning kutilayotgan Yashil Iqtisodiyot O'tish (GET) ulushi 100% ni tashkil etadi.

Mijoz haqida ma'lumot

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi

YeTTB Moliyaviy Xulosasi

250,000,000.00 AQSh Dollari

Moliyalashtirish transhlar orqali ta'minlanadi.

Loyi haning umumiy qiymati

287,100,000.00 AQSh Dollari

Ekologik va Ijtimoiy Xulosa

B toifasiga ajratilgan (2019 ESP). Loyiha doirasida O'zbekistonning 10 ta hududida sug'orish suvi tashish uchun foydalaniladigan 110 ta nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy (E&S) xavflar hamda ta'sirlar aniq va hududga xosdir. Ushbu xavflarni boshqarish mijoz tomonidan Ekologik va Ijtimoiy Harakatlar Rejasi (ESAP) hamda Ekologik va Ijtimoiy Boshqaruv Rejasi (ESMP) orqali amalga oshiriladi. Ekologik va Ijtimoiy Boshqaruv (ESMP) qurilish ishlari va ekspluatatsiya jarayonlarini tartibga solish uchun ishlab chiqiladi hamda tender hujjatlariga kiritilib, pudratchilar uchun majburiy bo'ladi.

Ekologik va Ijtimoiy Boshqaruv (ESMP) tender hujjatlari e'lon qilinishidan oldin yangilanadi. Loyi haning I bosqichi 2023-yil fevral oyida imzolangan (OpID 50996), biroq hali amalga oshirilmagan. Loyiha uchun Ekologik va Ijtimoiy ekspertiza (ESDD) mustaqil konsultant tomonidan o'tkazilgan bo'lib, unda mijozning mavjud faoliyatiga audit, tanlangan nasos stansiyalariga tashrif va tegishli hujjatlarni ko'rib chiqish kabilar o'z ichiga olgan. Loyiha sug'orish qamrovi, barqarorligi va ishonchligini yaxshilash orqali ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda, bu esa qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi individual fermerlar va fermer xo'jaliklari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD) natijalari shuni ko'rsatadiki, mijozning ekologik va ijtimoiy (E&S) salohiyati cheklangan bo'lib, ekologik va ijtimoiy (E&S) siyosati mavjud emas va samarali ekologik va ijtimoiy (E&S) boshqaruv tizimi (ESMS) joriy etilmagan. Natijada, milliy ekologik qonunchilik talablarining ayrim jihatlari to'liq amalga oshirilmagan. Shu sababli, mijoz quyidagi majburiyatlarni bajarishi talab etiladi: Yetishmayotgan emissiya va chiqindilarni yo'q qilish bo'yicha ruxsatnomalarni olish; Suv xo'jaligi vazirligi (MWR) ning Nasos Stansiyalari va Energetika Bo'limi, shuningdek, barcha Hududiy Nasos Stansiyalari va Energetika Bo'limlarida ekologik va ijtimoiy (E&S) mutaxassislarini tayinlash; PR1 talablariga mos keluvchi ekologik va ijtimoiy (E&S) boshqaruv tizimini (ESMS) ishlab chiqish.

Barcha mehnat amaliyotlari milliy qonunchilik, PR2 talablari va O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan XMT (ILO) asosiy konvensiyalari bilan mos keladi. Biroq, rasmiylashtirilgan Kadrlar Siyosati va ishchilarning shikoyat mexanizmi ishlab chiqilishi lozim. Reabilitatsiya, qurilish va o'rnatish ishlari davomida asosiy ekologik va ijtimoiy (E&S) xavflar quyidagilarga bog'liq: Potensial xavfli chiqindilar hosil bo'lishi va tuproqning ifloslanishi; Yaqin hududlarda yashovchi aholining shovqin va havo ifloslanishidan aziyat chekishi.

Mijozdan quyidagi talablar bajarilishi so'raladi: Ajratilgan chiqindilarni to'plash va chiqindilarni boshqarish amaliyotlarini takomillashtirish hamda xavfli moddalar va materiallarni PR3 talablariga muvofiq boshqarish; PR4 doirasida milliy yong'in va elektr xavfsizligi talablarini, sanitariya-gigiyena normalarini va jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida mulklarning to'g'ri o'ralishini ta'minlash. Ushbu masalalar Ekologik va Ijtimoiy Harakatlar Rejasi (ESAP) orqali hal etiladi. Nasos stansiyalarining yer uchastkalari davlatga tegishli bo'lib, ular kanal va daryolar suv muhofaza zonalarida joylashgan. Ayrim holatlarda (binolar qurilishi yoki devorlar o'rnatilishi uchun) oz miqdorda qo'shimcha yer maydonlari zarur bo'lishi mumkin. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi quyidagilarni amalga oshirishi talab etiladi: Yer egalik huquqini rasmiylashtirish tartibini ishlab chiqish; Nasos stansiyalari atrofida dehqonchilik yoki yaylov xo'jaligi bilan shug'ullanayotgan har qanday yer foydalanuvchilarini aniqlash; Loyiha ta'siri ostida qolgan shaxslarning turmush sharoitiga ta'sir darajasini o'rganish va agar zarur bo'lsa, zarar ko'rgan shaxslarga tegishli kompensatsiyani belgilash.

Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP) tarkibiga, agar ko'chirish ta'siri tasdiqlansa, "Yer Uchastkalarini Olish va Turmush Darajasini Tiklash Rejasi"ni ishlab chiqish majburiyati kiritiladi. Bundan tashqari, loyiha doirasida manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi va shikoyatlar mexanizmi ishlab chiqilgan.

110 ta nasos stansiyasidan oltitasi Muhim qushlar hududida yoki uning yaqinida joylashgan, bittasi Ugam-Chotqol Davlat Milliy Tabiat Parki chegarasida joylashgan bo'lib, himoya zonalaridan 14 kilometr uzoqlikda joylashgan. Ushbu hududda olib boriladigan ishlar hududlarnilardagi tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi kutilmaydi. Biroq, ehtiyot choralari tamoyiliga muvofiq, mijoz PR6 talablariga to'liq rioya etilishini ta'minlash maqsadida reabilitatsiya ishlari va ekspluatatsiya jarayonlari uchun maxsus biologik xilma-xillikni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi. Bunga reabilitatsiya ishlarini naslchilik mavsumidan tashqarida bajarish, ob'ekt hududini tegishli devor bilan o'rash hamda elektr jihozlariga xavfsizlik qutillarini o'rnatish kiradi. Bundan tashqari, ayrim nasos stansiyalarida baliqni himoya qilish tizimlari mavjud emas. Shu sababli, ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP) doirasida barcha suv olish inshootlarida bunday tizimlarni o'rnatish majburiyati yuklatiladi. I bosqich ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasiga (ESAP) yangilanish (I and II bosqichlarni qamrab oluvchi) tayyorlandi va mijoz bilan kelishildi. Bundan tashqari, Loyiha uchun manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi va shikoyatlar mexanizmi ishlab chiqilgan. Mijoz loyihani amalga oshirish jarayonida Loyihani amalga oshirishni

qo'llab-quvvatlash bo'yicha (PIS) konsultantni jalb qiladi, u ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP) bajarilishini ta'minlashda yordam beradi. Shuningdek, Kredit Beruvchining Monitori ham ekologik va ijtimoiy (E&S) masalalarini nazorat qiladi. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YeTTB) PR talablariga rioya etilishini va ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP)ning bajarilishini quyidagi yo'llar bilan kuzatib boradi: Kredit beruvchining monitori tayyorlagan hisobotlarni ko'rib chiqish; Mijoz tomonidan taqdim etiladigan Yillik Atrof-muhit va Ijtimoiy Hisobotlar (AESR) ni tahlil qilish; Zarurat tug'ilganda, loyiha ob'ektlariga tashrif buyurish.

Parij kelishuviga muvofiqlashtirish

Loyiha maxsus baholashdan so'ng Parij kelishuvining yumshatish maqsadlariga mos keladi. Loyiha milliy iqlim rejalar (NDC) bilan muvofiqlashtirilgan va uglerod blokirovkasining past xavfiga ega, chunki talab qilinadigan miqyosda elektr tarmog'ida ishlaydigan nasos agregatlari uchun mumkin bo'lgan va iqtisodiy jihatdan afzalroq past uglerodli variant mavjud emas. Loyiha emissiyalarni aniq kamaytirishni ta'minlaydi va elektr nasos texnologiyasiga past uglerodli alternativa yo'qligi sababli, foyda-xarajat tahlili (CBA) talab qilinmaydi.

Loyiha uchun ahamiyatli fizik iqlim xatarlari aniqlandi va ular iqlimga chidamli elementlarni loyiha dizayniga integratsiyalash orqali hal qilindi. Loyiha milliy moslashish siyosatiga zid emas va kengroq tizimning iqlimga chidamliligiga putur etkazmaydi. Shuning uchun u Parij kelishuvining moslashuv maqsadlariga mos keladi.

Yashil moliyalashtirish nisbatlari

YeTTB tomonidan moliyalashtirishning 100% yashil moliya sifatida tasniflanadi, chunki u iqlimni yumshatish va iqlimga moslashish maqsadlariga erishadigan faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi. Bu nisbat YeTTB investitsiyalarining yashil moliyalashtirish nisbatini aniqlash metodologiyasiga muvofiq amalga oshiriladi. Xususan, loyiha elektr energiyasi iste'molini sezilarli darajada kamaytiradi, bu esa asosiy ko'rsatkich bilan solishtirganda, yillik 117,041 tonna CO2 ekvivalenti issiqxona gazlari chiqindilarining kamayishiga olib keladi. Shuningdek, loyiha iqlim moslashuvi manfaatlarini ham taqdim etadi, ya'ni taxminan 69,000 gektar qo'shimcha qishloq xo'jaligi hududini iqlimga oid suv tanqisligi va qurg'oqchilikka moslashtiradi.

Texnik hamkorlik

Imzolashdan oldingi bosqich:

Texnik-iqtisodiy asoslash (texnik, atrof-muhit va ijtimoiy ekspertiza hamda yashil baholash) – 2020-2021 yillarda Bank tomonidan tayinlangan texnik-iqtisodiy asoslash tadqiqotining yangilangan versiyasini o'z ichiga oladi.

Imzolashtan keyingi bosqich:

Kredit beruvchining monitori / Texnik maslahatchi – Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YeTTB) tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish jarayonini kuzatishda Bankka yordam beradi.

Iqtisodiy inklyuziya bo'yicha ex-post baholash – loyihaning qishloq aholisi, fermerlar va ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni yaxshilash borasidagi ta'siri, samaradorligi va barqarorligini monitoring qilish va o'lchash maqsadida amalga oshiriladi.

Qo'shimchalar

Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YeTTB) loyiha tuzilishini ta'minlash uchun bozor o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lgan muddati va/yoki imtiyozli davrni taklif etadi. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YeTTB) investitsiyasi moliyaviy yetishmovchilikni bartaraf etish uchun zarur. Shu bilan birga, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YeTTB) boshqa moliyalashtirish manbalarini, jumladan xalqaro moliyaviy institutlar (IFI), hukumat yoki tijorat banklarining ishtirokini cheklamaydi, balki ularni to'ldiradi.

Bank o'z shartlari orqali (masalan, Xarid qilish Siyosati va Qoidalari, Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP)) Suv xo'jaligi vazirligiga yuqori standartlarga erishishda ko'maklashadi.

EBRDning loyiha doirasidagi ishtiroki O'zbekiston Respublikasining uzoq muddatli sug'orish suvi tashish (IWC) sektorini isloh qilishga hissa qo'shadi.

Kompaniyaning aloqa ma'lumotlari

Sevar Astanov, V.B. Direktor, Suv xo'jaligi sohasida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi

 **Email:** agency@minwater.uz

 **Telefon:** +998 55 520 1019

 **Veb-sayt:** <https://gov.uz/oz/suvchi/departments/subordinate?active=1242>

 **Manzil:** 1a Labzak ko'chasi, Toshkent shahri, 100000, O'zbekiston

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havoladan](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling. YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#)dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi. Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting. Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com electron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.